



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG‘I**

2024 yil “23” aprel 03160 - son

**“An’anaviy, xalq tabobati: yutuqlar va istiqbollar”
Xalqaro ilmiy- amaliy anjumanni o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi “Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PF-6221-sonli Farmonida belgilangan talablarning ijrosini ta‘minlash, “Tibbiyot va farmatsevtika ta‘limi va ilmfani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 20-martdagi “2024-yilda qo‘shimcha o‘tkaziladigan Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to‘g‘risida”gi 76-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash va Toshkent tibbiyot akademiyasida xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda o‘quv va ilmiy jarayonlarni yanada rivojlantirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. 2024-yil 3-4” may kuni Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o‘rinlarda- TTA “An'anaviy, xalq tabobati: yutuqlar va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (keyingi o‘rinlarda — Xalqaro anjuman) o‘tkazilsin.
2. Xalqaro anjumanga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun mas‘ul etib Akademiya ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i M.M.Jafarov, Rehabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasini mudiri A.A. Usmanxodjayeva va F.M.Tulyaganovlar belgilansin.
3. TTA ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova Xalqaro anjumanda TTA xodimlarining ishtirokini ta‘minlansin.
4. Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.U.Gaipov va Bosh buxgalter B.I.Alijonovlar Xalqaro anjumanni offlayn va onlayn tarzda o‘tkazilishini inobatga olib, Xalqaro anjuman bosqichlarini xolis, sifatli va shaffof o‘tkazish uchun ZOOM platformasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sarf-

xarajatlarni TTAning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirsin.

5. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasini mudiri A.A.Usmanxodjayeva va F.M.Tulyaganova:

Xalqaro anjumanning taklifnomasi va dasturini ishlab chiqsin;

Xalqaro anjuman yakuniga ko'ra anjuman materiallarini elektron formatda chop etilishini ta'minlansin;

Xalqaro anjuman ishtirokchilariga sertifikatlarni tayyorlash va anjuman ishtirokchilarini o'rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan ta'minlashni amalga oshirsin.

6. Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i M.M. Jafarov yetakchi xorijiy olimlarning taklif etilishi va ishtirokini o'z vaqtida, sifatli bajarilishini va nazorat qilsin.

7. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov tomonidan Xalqaro anjumanning ochilish marosimi va anjuman bosqichlarini o'tkazish jarayonida dasturiy ta'minot to'liq ta'minlab borilsin.

8. Matbuot kotibi G.T.Mirzayeva Xalqaro anjumanda ishtirok etgan olimlar to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari va TTAning veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida yoritilishini ta'minlansin.

9. Ilmiy -tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova Xalqaro anjuman yakunlanganidan so'ng unga oid ma'lumotlar hisobotini besh kun muddat ichida Sog'liqni saqlash vazirligining Fan ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'iga topshirsin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:

A.Usmanxodjaeva

Kafedra mudiri

Kelishildi:

F.Azizova

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor**

A.Musaxonov

Markaz rahbari

Z.Muminova

Bo'lim boshlig'i

M.Jafarov

Bo'lim boshlig'i

S.Dustmuradov

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor

S.Yusupova

Bo'lim boshlig'i